


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejoyvchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o‘rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug‘urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘shish sur‘atlari

Xizmatlar sohasi bu - korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko‘pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko‘riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar-ga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8307,4 mlrd. so‘mga yetdi. Uning nominal hajmi 1787,1 mlrd. so‘mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 119,3 % ni tashkil etdi.



O‘shish sur‘ati

• 119,3 %

Hajmning oshishi


• 1 787,1 mlrd. so‘m

Xizmatlar hajmi

• 8 307,4 mlrd. so‘m

Xizmatlar – iste‘molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so‘m




2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 182,8 mlrd. so‘mga oshib 741,4 mlrd. so‘mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o‘tgan yilning shu davrida ularning hajmi 116,1 mlrd. so‘mga o‘sgan va 611,2 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan.

2021- yil XI – diskret (noyabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2021- yil XII – diskret (dekabr) oyining hajmi 95,3 mlrd. so‘mga pasaygan.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning XI va XII – diskret oylari o‘rtasidagi farqi 15,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



Dashtlabki ma’lumotlar


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so‘m	O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati, % da
Xizmatlar - jami	8 307,4	119,3
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	448,6	114,6
Moliyaviy xizmatlar	1 672,9	127,7
Transport xizmatlari	2 161,1	122,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 162,9	121,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	190,1	98,8
Savdo xizmatlari	1 865,3	109,0
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	215,0	120,9
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	535,8	136,3
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	103,1	122,5
Ijara xizmatlari	171,8	113,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	253,9	119,2
Shaxsiy xizmatlar	317,8	115,3
Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	95,1	98,4
Boshqa xizmatlar	276,9	132,3

Xizmatlar sohasining rivojlanishi


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 26,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko‘rsatkichlar savdo xizmatlari (22,5 %), moliyaviy xizmatlar (20,1 %), ta‘lim sohasidagi xizmatlar bo‘yicha (6,5 %) qayd etildi.

Me‘morchilik sohasidagi xizmatlar ko‘rsatish hajmlarining uncha katta bo‘lmagan o‘sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo‘lmagan ulush sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,2 %, Ijara xizmatlari hissi 2,1 % ga to‘g‘ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur‘atlarini taqqoslanishi



Yuqori o‘sish sur‘atlari ta‘lim sohasidagi xizmatlar (36,3 %), boshqa xizmatlar (32,3 %), moliyaviy xizmatlar (27,7 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (22,5 %), transport xizmatlari (22,0 %), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (20,9 %), da qayd etildi.

Me‘morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi (1,6 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (1,2 % ga) pasayish kuzatildi.

Dastlabki ma‘lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste‘mol o‘rtasidagi aloqani ta‘minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 22,5 % ni tashkil etib, bu 1865,3 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi.

Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste‘mol sohasiga o‘tishini ta‘minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma‘lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste‘molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo‘linadi.


Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta‘mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi 77,7 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,8 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1672,9 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1287,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 20,1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularni ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 385,0 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 27,7 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularni o'sish sur'ati 125,5 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobida ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 87,9 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug‘urta xizmatlarining ulushi 9,5 % oralig‘ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug‘urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko‘rsatkichga ega emas va u 2,6 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta‘sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma‘lumotlarni to‘plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo‘lib, u eng zamonaviy uskunarlar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)




2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 448,6 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 114,6 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)




<p>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 94,3 % ni tashkil etdi.</p>	<p>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 1,2 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,6 %, noshirlik xizmatlari - 2,8 %, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 1,1 % dan tashkil etdi.</p>
--	--

Ma‘lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta‘lim bilan ta‘minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta‘lim sohasidagi xizmatlar (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi 535,8 mlrd. so‘mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 136,3 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 98,8 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 190,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarning ulushi 92,1 % bilan ustunlik qiladi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash bo‘yicha xizmatlar ulushi 7,9 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog‘liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalarini, poliklinikalar, klinikalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 103,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlar hajmidagi ulushi 1,2 % ni tashkil qildi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 122,5 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma‘lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar, iste‘molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so‘m	O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da	Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so‘m
Qoraqalpog‘iston respublikasi	8 307,4	119,3	4 290,8
Nukus sh.	3625,5	116,6	11 104,3
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	452,4	122,4	2 227,5
Beruniy	461,0	118,4	2 353,1
Bo‘zatov	36,8	129,5	1 688,0
Qorao‘zak	133,6	121,3	2 501,0
Kegeyli	139,2	129,4	1 896,2
Qo‘ng‘irot	1065,1	121,3	8 056,8
Qonliko‘l	118,3	122,4	2 275,0
Mo‘ynoq	78,1	121,1	2 389,6
Nukus t.	132,3	119,3	2 569,7
Taxiatosh	164,9	111,6	2 195,9
Taxtako‘pir	98,4	123,5	2 430,4
To‘rtko‘l	707,0	121,4	3 223,8
Xo‘jayli	361,4	125,0	2 893,6
Chimboy	237,3	123,7	2 086,8
Shumanay	107,5	126,5	1 891,8
Ellikqal‘a	388,6	119,3	2 379,5

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Nukus shahri (3625,5 mlrd. so‘m), Qo‘ng‘irot tumani (1065,1 mlrd. so‘m), To‘rtko‘l tumani (707,0 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Ma’lumki, zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo‘jalik hududlarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste‘molini oshirishni ta‘minlaydi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o‘sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4290,8 ming so‘mga yetdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 117,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 4290,8 ming so‘m

O‘shish sur‘ati, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da - 117,7 %

Hajmning o‘sishi, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, - 878,8 ming so‘mga



Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Dastlabki ma’lumotlar

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o‘tib borayotgan to‘lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo‘lgan iste’molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog‘liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo‘jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta’sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi

Tel.: 61-224-92-15